



ORIENTAL UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI

“O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK: TILLAR TA’LIMI VA TADQIQI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI

**ORIENTAL UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI**



**«O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK:
TILLAR TA’LIMI VA TADQIQI»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI**

TOSHKENT – 2023

XORAZM SHEVALARINING O'RGANILISH TARIXIGA DOIR

*Alimardanov Elyor Ilxom o'g'li,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti*

Annotatsiya. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi tarkibiga kiruvchi Xorazm shevalari o'zbek dialektologiyasida boshqa shevalarga nisbatan ko'p o'rganilgan obyektlardan biri hisoblanadi. Maqolada Xorazm shevalarining mahalliy va xorijlik olimlar tomonidan o'rganilishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, sheva, Xorazm shevalari, o'g'uz, qipchoq.

Xorazm shevalarini o'rganish, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, ushbu davr Xorazm shevalari haqida ma'lumotlar xorijiy olimlar tomonidan berilgan. Xorazm shevalari haqidagi ilk ma'lumotni 1865 yilda nemis tilshunos olimi Y.Budens o'zining "Xiva tatarchasi" [4; 269-331] nomli maqolasida beradi. Aytish joizki, "Xiva tatarchasi (turkchasi)" ishi hali xorazmshunos-dialektologlar tomonidan o'rganishdan chetda qolayotgan tadqiqotlardan bo'lib, uzoq vaqtlardan beri Xorazm shevalari haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba sifatida A.Vamberining 1867 yilda e'lon qilingan "Chig'atoy tili darsligi" keltiriladi. Ammo Y.Budens Vamberidan avval (2 yil oldin) mazkur maqolasini ilm ahliga taqdim etadi. Shunga ko'ra, Xorazm shevalari haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba sifatida Y.Budensning mazkur maqolasini keltirish mumkin. Maqola Vengriya Fanlar Akademiyasining Tilshunoslik jurnalida venger tilida yozilgan bo'lib, qariyb 62 sahifani tashkil etadi.

Y.Budens ushbu ishida “tatarcha” terminini qo‘llab, o‘zbek tilini nazarda tutadi. Aytish joizki, mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida Budens biror marta Xorazmda bo‘lmagan va xalq ichida yurib, matnlar yozib olmagan, shunga ko‘ra, ishni umumiy ma’lumot beruvchi axborot sifatida talqin etish mumkin. Olim shevaga oid materiallarni bayon qilishda unga yaqin o‘rtog‘i A.Vamberi Yevropaga o‘zi bilan olib borgan shogirdi Mulla Is’hoqning xizmati katta ekanligini alohida ta’kidlaydi. Manba va materiallarni uning og‘zidan yozib olganligini qayd etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Mulla Is’hoq o‘ziga yarasha ilmiy, Xiva madrasalarida tahsil ko‘rgan, arab va fors tillaridan yaxshigina xabardor ziyoli kishi bo‘lgan. Shu jihatdan, uning og‘zidan yozib olingan materiallar sheva elementlarini to‘liq o‘zida aks ettirmaydi. Buni maqolaga ilova qilingan matnlardan ham bilib olish mumkin bo‘ladi. Maqolaning nazariy qismi muallif tomonidan 2 ga bo‘linadi: 1. Fonetik bildirgilar (Hangtani észrevételek) 2. Grammatik shakllar (Nyelvtani alakok).

O‘zbek shevalarini o‘rganish va ilmiy asosda tasnif qilishda, shu jumladan, Xorazm shevalarining o‘rganilishida Y.D.Polivanovning xizmati katta [1; 114]. Y.D.Polivanov o‘zining “Shovot rayoni Qiyot-Qo‘ng‘irot qishlog‘ining shevasi” nomli maqolasida [12; 3-7] Xorazm shevalarini uchga: 1) Janubiy Xorazm shevalari, 2) Shimoliy Xorazm (“ž”lovchi) shevalari, 3) O‘rta Xorazm (“j”lovchi) shevalariga bo‘ladi va o‘zbek tilini 3 lahjaga ajratib, Janubiy Xorazm shevalarini (Xiva, Xonqa, Urganch, Hazorasp, Shovot, G‘azovot, Yangiariq, Sho‘raxon (To‘rtko‘l) o‘g‘uz lahjasining birinchi tipiga, Shimoliy Xorazm (“ž”lovchi) shevalarini (Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Qipchoq (Amudaryo), Mang‘it (Amudaryo)) qipchoq lahjasining birinchi guruhiga, O‘rta Xorazm (“j”lovchi) shevalarini (Gurlan va Mang‘it (Amudaryo)) ham qipchoq lahjasining ikkinchi guruhiga kiritadi.

G‘ozi Olim Yunusov o‘zining “O‘zbek lahjalarini o‘rganishda bir tajriba” nomli risolasida o‘zbek shevalarini 3 guruhga ajratadi va Xorazm shevalarini alohida Xiva-Urganch shevalari nomi bilan ataydi. Professor G‘.Olimov Xiva-Urganch shevalari haqida fikr yuritarkan, *“Men bu lahjani tarixiy turk-barlos yoki turk-xoqoniy atadig‘im, tilning “d” lahjasiga bog‘lab, turk-qarluq lahjasi deb ham atayman. Meningcha, bu lahja bir yoqdan, turk-barlos jonli shevalari, ikkinchisi yoqdan o‘g‘uz tillari bilan aralashgan qarluq tilining yangi bir shaklidir”* [16; 21], deb izohlaydi.

Akademik K.K.Yudaxin tasnifi bo‘yicha, Janubiy Xorazm shevalari o‘g‘uz-Xiva shevasi deb alohida guruhga ajratiladi [15; 498].

Rus tilshunos olimi A.K.Borovkov 1953-yilda e‘lon qilgan “O‘zbek shevalarining tasniflash masalalari” ishida o‘zbek shevalarini tasniflar ekan, Janubiy Xorazm shevalarini Chimkent, Mankent, Turkiston shevalari bilan birga a-lashgan shevalarning j-lashgan guruhiga, Shimoliy Xorazm shevalarini esa, a-lashgan guruhining ž-lashgan guruhiga kiritadi [6; 72-73].

V.V.Reshetov Xorazm shevalari borasida o‘z qaydlarida ma‘lumot berarkan, ushbu hududda o‘zbek tilining ikki shevasi mavjud ekanligi haqida aytadi.

F.Abdullayev o‘zining “O‘zbek tili Xorazm shevalarining fonetikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasida Xorazm shevalarini 2 guruhga ajratadi [3; 20]:

1. O‘g‘uz
2. Qipchoq

Olim Xorazm shevalarining qipchoq guruhini o‘z ichida 4 tipga bo‘ladi:

1. дж-lashgan shevalar – Gurlan tumani, Amudaryo tumani hududidagi qishloq shevalari.

2. й-lashgan shevalar – Amudaryo, Gurlan, Beruniy, To‘rtko‘l tumanlaridagi qishloq shevalari.

3. ə-lashgan shevalar – Gurlan, Urganch, Hazorasp, Shovot tumanlari qishloq shevalari.

4. Aralash tipdagi qipchoq-o‘g‘uz shevalari – Urganch, Qo‘shko‘pir, Yangibozor, Xonqa tumanlari qishloq shevalari.

Xorazm shevalarining o‘g‘uz guruhi o‘z ichida 3 guruhga bo‘linadi:

1. Urganch-Xiva shevalari

2. Hazorasp-Yangiariq shevalari

3. Aralash tipdagi o‘g‘uz-qipchoq shevalari – Urganch, Shovot, Qo‘shko‘pir, Hazorasp tumanlari qishloq shevalari.

Fattoh Abdullayev Xorazm shevalaridagi so‘zlarni alohida lug‘at holida tartiblaydi. Monografiya 2 qismdan iborat bo‘lib, Xorazm shevalarining lug‘ati va Xorazm shevalarining tasnifi, grammatikasiga bag‘ishlangan.

Lug‘at qismi yana ikki qismga: shevaga xos so‘zlar lug‘ati va shevaning grammatik ocherkiga bo‘linadi. So‘zlik qismida shevaga oid ikki mingdan ortiq so‘zning lug‘ati berilib, ko‘pchilik so‘zlar tegishli misollar bilan ta‘minlangan. Shuningdek, ushbu qismda muallifning ta‘biricha: *“lug‘atda adabiy tilda yo‘q..., fonetik jihatdan farq qiluvchi..., ma’no jihatdan farqlanuvchi so‘zlarni”* qayd etadi [2; 9]. Muallif lug‘at qismida tematik jihatdan so‘zlarni tasnif asosida alifbo ko‘rinishda taqdim etadi.

Grammatik ocherk qismida fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, affikslar ro‘yxati o‘rin egallagan.

Shuningdek, Xorazm shevalari yuzasidan Y.Jumanazarov, A.Ishaev, X.Boboniyozov, E.O‘razov, O.Madrahimov, Y.Ibragimov, Sh.Norboevalarning ishlari diqqatga sazovordir.

Xorazm shevalari borasida qiyosiy xarakterdagi tadqiqotlar ham amalga oshirildi. Xususan, M.Saparovning Xorazm viloyati hududidagi o‘zbek va turkman tillarining o‘zaro aloqasiga bag‘ishlangan tadqiqoti fikrimiz isbotidir.

M.Saparov ushbu ishida Xorazm vohasida yashovchi o‘zbek va turkman millati vakillarining tilida uchraydigan, asosan, leksik umumiylik va ayrichaliklarini tadqiqot obyekti sifatida oladi.

Areal lingvistik jihatdan o‘zbek tili massivining dialektal zonalarga ajratilib, tadqiq qilinishi A.Jo‘rayev nomi bilan bog‘liq. Olim Xorazm shevalarini (Xorazm viloyati, Janubiy qoraqalpoq tumanlari (To‘rtko‘l, Ellikqal’a, Beruniy, Amudaryo), Toshhovuz viloyatini (Turkmaniston) Xorazm dialektal zonasi tarkibiga kiritib, dialektal zonaning fokus nuqtasi etib, Urganch-Xiva shevalarini oladi [7; 68].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. T.: “Nodirabegim”. 2021.
2. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. Тошкент: Фан. 1961.
3. Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезмских говоров узбекского языка. Дисс... фил. н. Ташкент, 1961.
4. Budenz József. Khivai tatárság // Nyelvtudományi közlemények. A Magiak Tudományos Akadémia Nyelvtudományi bizottsága. Negyedik kötet. – Pesten, 1865.
5. Бабаниязов Х. Фонетико-морфологические особенности кипчакских говоров Южного Хорезма. КД, Ташкент, 1966.
6. Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских говоров. Известия АН УзССР, 5. 1953.
7. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.

8. Ибрагимов Ю.М. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. ДД, Тошкент, 2000.
9. Ишаев А.Манғит шевасининг фонетик хусусиятлари (ҚҚАССР Амударё районида тўпланган материаллар асосида). НД, Тошкент, 1961.
10. Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Ҳазорасп шевасининг морфологик хусусиятлари. НД, Тошкент, 1961.
11. Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка. ДД, Ташкент, 1978.
12. Поливанов Е.Д. Говор кишлака Кият-Конграт Шаватского района, сб. научных трудов / УзНИИКС, 1934, том 1, вып. II.
13. Сапаров М. Лексико-семантические особенности огузского наречия узбекского языка (в сравнении с туркменским языком). КД, Ташкент, 1983.
14. Ўрозов Э.Ю. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари (ҚҚАССР Тўрткўл, Беруний районларидаги ўзбек шевалари материаллари асосида). НД, Тошкент, 1966.
15. Юдахин К.К. Узбекский язык, Литературная энциклопедия, т.ХІ, 1939
16. Qlazi Alim Junus. Ozbek lahçalarını tasnıfda bır taçrıba. – Taşkent, 1935.

**BADIY ASARDA QO‘LLANGAN
FRAZELOGIZMLARINING SOTSIOPRAGMATIK
XUSUSIYATLARI**

*Mashhura Yuldosheva,
Namangan xalqaro universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning uslubiy bo‘yoqdorligi, muayyan va o‘ziga xos til birligi ekanligi, obrazli

arabiy qatlam masalasi.....	97
Absalamova Gulmira. Tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining turkum jihatlari.....	102
Sapayeva Boljon. O‘zbek tili gemeronimlarining tuzilish jihatdan turlari.....	106
Tadjiyeva Umida. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollarini lingvomadaniy aspektda o‘rganish masalalari.....	113
Alimardanov Elyor. Xorazm shevalarining o‘rganilish tarixiga doir.....	118
Yuldosheva Mashhura. Badiiy asarda qo‘llangan frazeologizmlarining sotsiopragmatik xususiyatlari.....	123
Rayimjonov Sayidolim. Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy tilni rivojlantirishdagi xizmatlari.....	132
Yandashova Dilniso. Abdulla Oripov she‘riyatida “Vatan” konseptining lingvokulturologik tahlili.....	136
Usmonova Shahnoza. Abdurauf Fitrat asarlarida murakkab leksemalarning qo‘llanilishi.....	140
Moxinur Qurbonova. Muallif ixtirosi – okkazional birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari.....	145
Tuxtasinova Z. M. O‘zbek va ingliz tillarida haqoratning evfemizmlar orqali ifodalanishi.....	151
Erkinova Marxobo. Matnda ijobiy baho bildiruvchi birliklarning assotsiativ maydon hosil qilishi.....	155
Jumayeva Marjona, Qandimova Inobat. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida shaxs nomlari.....	163
Muminova Umida. “Mahbub ul-qulub” asari so‘zlarining polisemantik tavsifi.....	169
Sharafutdinova Nilufar. O‘z qatlmga oid teonimlar.....	176
Abdujalilov Ma’rufjon. O‘zbek va rus tillarida qora rang bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlar tahlili.....	181